XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARNING XALQARO HAMKORLIK TIZIMIGA TA’SIRI

Xudoyqulov Samariddin Nasriddin o'g'li
Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani,
Ixtisoslashtirilgan maktab Tarix fani o‘qituvchisi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24406065

Annotatsiya. *Maqolada XX asr oxiri – XXI asr boshlarida global ekologik muammolarning xalqaro hamkorlik tizimiga ta’siri tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, cho‘llanish va transchegaraviy ekologik muammolarning davlatlararo munosabatlarga ta’siri yoritiladi.*

Shuningdek, Stokgolm va Rio konferensiyalari, Kioto protokoli hamda Parij kelishuvining xalqaro ekologik siyosat rivojidagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqotda ekologik diplomatiyaning shakllanishi, xalqaro tashkilotlar faoliyati va davlatlarning umumiy ekologik mas’uliyati tarixiy jarayonlar asosida baholanadi.

Kalit so‘zlar: *global ekologik muammolar, xalqaro hamkorlik, ekologik diplomatiya, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, BMT, UNEP, Stokgolm konferensiyasi, Rio-de-Janeyro konferensiyasi, Kioto protokoli, Parij kelishuvi.*

Abstract*. This article examines the impact of global environmental problems on the system of international cooperation in the late twentieth and early twenty-first centuries from a historical perspective. It analyzes the influence of climate change, ozone layer depletion, biodiversity loss, desertification and transboundary environmental challenges on interstate relations.*

Particular attention is paid to the Stockholm and Rio conferences, the Kyoto Protocol and the Paris Agreement as important milestones in the development of international environmental policy. The study also explores the emergence of environmental diplomacy, the role of international organizations and the development of shared environmental responsibility among states.

Keywords: *global environmental problems, international cooperation, environmental diplomacy, environmental security, sustainable development, United Nations, Stockholm Conference, Rio Conference, Kyoto Protocol, Paris Agreement.*

Аннотация. *В статье с исторической точки зрения анализируется влияние глобальных экологических проблем на систему международного сотрудничества в конце XX – начале XXI века. Рассматривается воздействие изменения климата, разрушения озонового слоя, сокращения биологического разнообразия, опустынивания и трансграничных экологических проблем на межгосударственные отношения.*

Особое внимание уделяется Стокгольмской и Рио-де-Жанейрской конференциям, Киотскому протоколу и Парижскому соглашению, сыгравшим важную роль в развитии международной экологической политики. Также исследуются становление экологической дипломатии, деятельность международных организаций и формирование общей экологической ответственности государств.

Ключевые слова: *глобальные экологические проблемы, международное сотрудничество, экологическая дипломатия, экологическая безопасность, устойчивое развитие, ООН, ЮНЕП, Стокгольмская конференция, конференция в Рио-де-Жанейро, Парижское соглашение.*

KIRISH

XX asr insoniyat tarixida ilmiy-texnik taraqqiyot, sanoatlashuv va iqtisodiy yuksalish bilan bir qatorda, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar keskin o‘zgargan davr sifatida ham alohida o‘rin egallaydi. Ishlab chiqarish ko‘lamining kengayishi, tabiiy boyliklardan me’yoridan ortiq foydalanish, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va atrof-muhitga antropogen ta’sirning kuchayishi natijasida ekologik muammolar tobora global tus ola boshladi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, cho‘llanish, suv resurslarining ifloslanishi va xavfli chiqindilar bilan bog‘liq muammolar alohida davlatlar chegarasidan chiqib, butun insoniyat manfaatlariga daxldor masalaga aylandi.

Tabiat muayyan davlat hududi bilan chegaralanmaganidek, uning muvozanatiga yetkazilgan zarar ham bir mamlakat doirasida qolmaydi. Bir hududda yuzaga kelgan ekologik inqirozning oqibatlari boshqa mintaqalarning tabiiy muhitiga, iqtisodiy barqarorligiga va aholi turmush tarziga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu jihatdan XX asr oxiri – XXI asr boshlarida ekologik xavfsizlik masalasi xalqaro munosabatlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Davlatlar oldida tabiiy resurslarni asrash, ekologik xavflarning oldini olish va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilish kabi umumiy vazifalar paydo bo‘ldi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotda XX asr oxiri – XXI asr boshlarida global ekologik muammolarning xalqaro hamkorlik tizimiga ta’siri tarixiy jarayonlar, xalqaro munosabatlar va ekologik diplomatiya rivoji bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik, tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy va muammoviy-xronologik yondashuvlar tashkil etadi. Tarixiylik tamoyili ekologik muammolarning xalqaro miqyosda dolzarb masalaga aylanishi va davlatlararo hamkorlik mexanizmlarining bosqichma-bosqich shakllanishini davriy izchillikda yoritish imkonini beradi.

Qiyosiy-tarixiy metod orqali turli davrlarda qabul qilingan xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar va kelishuvlarning maqsadlari, mazmuni hamda amaliy ahamiyati o‘zaro solishtiriladi. Tizimli yondashuv esa BMT, UNEP va boshqa xalqaro tashkilotlarning ekologik muammolarni hal etishdagi o‘rni, davlatlar hamkorligi va xalqaro huquqiy mexanizmlarning o‘zaro aloqadorligini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda muammoviy-xronologik metoddan ham foydalaniladi. Ushbu metod asosida ekologik hamkorlikning rivojlanishi bir necha tarixiy bosqichga ajratib o‘rganiladi. Birinchi bosqichda 1972-yilgi Stokgolm konferensiyasi va BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) tashkil etilishi orqali xalqaro ekologik hamkorlikning institutsional asoslari shakllanishi tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqichda 1992-yilgi Rio-de-Janeyro konferensiyasi, Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya va Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha BMT doiraviy konvensiyasining xalqaro ekologik siyosatga ta’siri o‘rganiladi. Uchinchi bosqichda esa 1997-yilgi Kioto protokoli, 2002-yilgi Yoxannesburg sammiti, 2012-yilgi Rio+20 konferensiyasi va 2015-yilgi Parij kelishuvi doirasida xalqaro ekologik majburiyatlarning kengayishi tadqiq etiladi. Bunda 1972-yilgi Stokgolm konferensiyasi mavzuning tarixiy ildizlarini ochib beruvchi muhim boshlang‘ich nuqta sifatida qaraladi.

Mahalliy olimlar orasida Ismoil Alimbayevich Nurmetovning “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro ekologik hamkorlik aloqalari tarixi” nomli monografiyasi alohida e’tiborga loyiq. Mazkur asarda O‘zbekistonning 1991–2019-yillardagi tashqi siyosati, Markaziy Osiyoda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, mintaqaviy ekologik muammolarni bartaraf etish

yo‘lidagi integratsiya jarayonlaridagi ishtiroki yoritilgan [1]. Muallifning ushbu tadqiqoti O‘zbekistonning xalqaro ekologik hamkorlikdagi o‘rnini tarixiy jihatdan tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi.

Bibirajab Mirjonovna Yuldoshevaning “Orol muammosining xalqaro maydonga olib chiqilishi va O‘zbekiston ekologik diplomatiyasining rivojlanishi” nomli maqolasida 1995–2016-yillarda Orolbo‘yi ekologik inqirozining xalqaro miqyosda muhokama qilinishi va O‘zbekiston ekologik diplomatiyasining shakllanish jarayonlari yoritilgan. Tadqiqotda Orol muammosining BMT minbarlarida ko‘tarilishi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va ekologik xavfsizlik masalalarining tashqi siyosatdagi ahamiyati tahlil etilgan. Bu ish global ekologik muammolarning muayyan mintaqa misolida xalqaro hamkorlikka ta’sirini ochib berishi bilan qimmatlidir [2].

M.G. A’zamova, B.B. Jahongirov, N.S. Abdikadirova, Dj.S. Nurullayeva va N.Z. Mirdjamolovaning “Global ekologik muammolar va ularning yechimlari” nomli maqolasida ekologik muammolarning zamonaviy ko‘rinishlari, xalqaro tashkilotlarning ularni bartaraf etish borasidagi faoliyati hamda Orol muammosi xususida fikr yuritilgan. Mazkur maqola global ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikning amaliy ahamiyatini tushunishga yordam beradi [3].

Xorijiy tarixshunoslikda Iris Borowy tomonidan yozilgan “Before UNEP: Who Was in Charge of the Global Environment? The Struggle for Institutional Responsibility 1968–72” maqolasi muhim ilmiy ahamiyatga ega. Muallif 1968–1972-yillarda xalqaro ekologik masalalar bo‘yicha institutsional mas’uliyat uchun olib borilgan jarayonlarni, NATO, OECD va BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi o‘rtasidagi hamkorlik hamda raqobatni tahlil qiladi [4]. Ushbu tadqiqot UNEP tashkil etilishining tarixiy shart-sharoitlarini anglashga imkon beradi.

Frank Biermann va Philipp Pattbergning “Global Environmental Governance: Taking Stock, Moving Forward” nomli ilmiy maqolasida global ekologik boshqaruv tizimining rivojlanishi, xalqaro tashkilotlar va nodavlat subyektlarning ushbu jarayondagi o‘rni tahlil qilingan [5]. Mualliflar ekologik boshqaruv an’anaviy davlatlararo kelishuvlar doirasidan kengayib, ko‘p darajali va ko‘p subyektli hamkorlik tizimiga aylanganini ta’kidlaydilar.

NATIJA VA MUHOKAMA

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida global ekologik muammolarning keskinlashuvi xalqaro hamkorlik mazmuni va yo‘nalishlarida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda ekologik masalalar davlatlarning ichki siyosatiga tegishli muammo sifatidagi qarashlardan chiqib, xalqaro munosabatlarning mustaqil va ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bunga sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, tabiiy resurslardan foydalanish hajmining ortishi, atmosfera va suv havzalarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi hamda iqlim o‘zgarishining transchegaraviy xususiyati sabab bo‘ldi. Natijada bir davlat hududida yuzaga kelgan ekologik muammoning oqibatlari boshqa mamlakatlarga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi xalqaro hamjamiyat tomonidan tobora chuqurroq anglab borildi.

Bu jarayonning tarixiy asoslari 1972-yilgi Stokgolm konferensiyasi bilan bog‘liq bo‘lsada, uning xalqaro hamkorlik tizimiga ta’siri ayniqsa 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Stokgolm konferensiyasida qabul qilingan deklaratsiya va harakatlar rejasi atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha umumiy xalqaro tamoyillarni shakllantirdi [6].

BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi — UNEPning tashkil etilishi esa ekologik masalalarni xalqaro darajada muvofiqlashtirish uchun institutsional asos yaratdi.

Shu tariqa ekologik muammolarni muhokama qilish alohida konferensiyalar doirasidan chiqib, muntazam xalqaro faoliyat yo‘nalishiga aylandi.

1980-yillarda ozon qatlamining yemirilishi va xavfli chiqindilarning transchegaraviy harakati xalqaro ekologik hamkorlikning amaliy mexanizmlarini rivojlantirish zaruratini kuchaytirdi. 1985-yilda Vena konvensiyasining qabul qilinishi, 1987-yilda Monreal protokolining imzolanishi davlatlarning umumiy ekologik xavfga qarshi kelishilgan choralar ko‘rishi mumkinligini namoyon etdi. 1989-yilda qabul qilingan Bazel konvensiyasi esa xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo‘q qilish bilan bog‘liq masalalarni xalqaro tartibga solish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Konvensiya 1992-yil 5-mayda kuchga kirgan [7].

Bu hujjatlar ekologik xavfsizlikni ta’minlashda xalqaro huquqiy normalarning ahamiyati ortib borganini ko‘rsatadi.

1992-yilgi Rio-de-Janeyro konferensiyasi xalqaro ekologik hamkorlik tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Konferensiyada 179 mamlakat vakillarining ishtirok etishi ekologik muammolar jahon siyosatining umumiy kun tartibiga aylanganini ko‘rsatdi. Unda Rio deklaratsiyasi va “XXI asr kun tartibi” — Agenda 21 qabul qilindi. Shuningdek, Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha BMT doiraviy konvensiyasi hamda Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya imzolash uchun ochildi. Mazkur hujjatlar ekologik muammolarni iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy farovonlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqishga asos yaratdi. Muhim jihati shundaki, Rio konferensiyasi ekologik mas’uliyat masalasini rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlari bilan bog‘liq holda muhokama qilishga imkon berdi [8].

Rio konferensiyasidan keyingi davrda xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari yanada kengaydi. 1994-yilda BMTning Cho‘llanishga qarshi kurash konvensiyasi qabul qilinishi yerlarning degradatsiyasi va cho‘llanish muammolarini xalqaro miqyosda hal etishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. Bu jarayon, ayniqsa, qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarga ega davlatlar uchun katta ahamiyat kasb etdi. Konvensiya ekologik muammolarni faqat tabiatni muhofaza qilish masalasi sifatida emas, balki qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, kambag‘allikni qisqartirish va barqaror rivojlanish bilan bog‘liq muammo sifatida talqin qilishni kuchaytirdi.

Iqlim o‘zgarishiga qarshi xalqaro hamkorlikning rivojlanishida 1997-yil 11-dekabrda qabul qilingan Kioto protokoli alohida o‘rin egallaydi. Ushbu hujjat Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha BMT doiraviy konvensiyasini amaliy majburiyatlar bilan to‘ldirdi. Protokol sanoatlashgan mamlakatlar va iqtisodiyoti o‘tish davridagi davlatlar uchun issiqxona gazlari chiqindilarini cheklash hamda kamaytirish bo‘yicha belgilangan maqsadlarni nazarda tutdi [9].Uning 2005-yil 16-fevralda kuchga kirishi xalqaro ekologik kelishuvlarni amalga oshirish murakkab diplomatik va huquqiy jarayon ekanini ko‘rsatdi [10]. Shu bilan birga, “umumiy, ammo tabaqalashtirilgan mas’uliyat” tamoyili davlatlarning tarixiy javobgarligi va iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini kun tartibiga olib chiqdi.

XULOSA

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida global ekologik muammolarning keskinlashuvi xalqaro hamkorlik tizimining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik xavfsizlik masalalari davlatlarning ichki siyosati doirasidan chiqib, xalqaro munosabatlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Stokgolm konferensiyasidan boshlangan jarayon Rio-de-Janeyro konferensiyasi, Kioto protokoli va Parij kelishuvi orqali yangi institutsional hamda huquqiy mazmun kasb etdi.

O‘rganilgan tarixiy jarayonlar xalqaro ekologik hamkorlikning rivojlanishida BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, xalqaro konvensiyalar hamda ko‘p tomonlama muzokaralar muhim o‘rin tutganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari va milliy manfaatlari o‘rtasidagi tafovutlar ekologik kelishuvlarni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nurmetov I.A. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro ekologik hamkorlik aloqalari tarixi. – Toshkent: Khwarezm Publication, 2024. – 156 b.
2. A’zamova M.G., Jahongirov B.B., Abdikadirova N.S., Nurullayeva Dj.S., Mirdjamolova N.Z. Global ekologik muammolar va ularning yechimlari // Science and Research. – 2025. – B. 656–662.
3. Quyliev T. Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli // FarDU ilmiy xabarlari. – 2024. – T. 30, № 2.
4. Dirim N.X. Zamonaviy global ekologik muammolar va ko‘p tomonlama atrof-muhit bitimlarining ushbu muammolarni yechishdagi o‘rni // ResearchBib. – 2025. – T. 2, № 6.
5. Borowy I. Before UNEP: Who Was in Charge of the Global Environment? The Struggle for Institutional Responsibility 1968–72 // Journal of Global History. – 2019. – Vol. 14, No. 1. – P. 87–106.
6. Biermann F., Pattberg P. Global Environmental Governance: Taking Stock, Moving Forward // Annual Review of Environment and Resources. – 2008. – Vol. 33. – P. 277–294.
7. Barrett S. Environment and Statecraft: The Strategy of Environmental Treaty-Making. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
8. Chasek P.S. Earth Negotiations: Analyzing Thirty Years of Environmental Diplomacy. – Tokyo: United Nations University Press, 2001.
9. Susskind L.E. Environmental Diplomacy: Negotiating More Effective Global Agreements. – New York: Oxford University Press, 1994.
10. Carattini S. et al. What Does Network Analysis Teach Us About International Environmental Cooperation? // Ecological Economics. – 2023. – Vol. 205. – Article 107670.